



BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK OQIBATLARI

Allamurodova Dildora Saitovna

*Buxoro viloyati Buxoro shahar MMTBga qarashli 41-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktab amaliyotchi psixologi*

***Annotatsiya:** Zo'ravonlik, ayniqsa bolalarga nisbatan, eng og'ir psixologik travmalarni keltirib chiqaradigan holatlardan biridir. Bolaga nisbatan zo'ravonlikning oqibatlarini aniqlash va to'g'ri tashxislash samarali terapevtik aralashuvni amalga oshirish uchun zaruriy omil hisoblanadi, shuning uchun bu jarayonda mutaxassislarning roli juda muhim. Travmatik hodisalarni boshdan kechirgan bolalarning psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularni tan olish va kerakli aralashuvlarni taqdim etish bolalarning tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Shunday qilib, zo'ravonlikka uchragan bolalarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish va travmatik tajribalarning oqibatlarini baholash usullarini ishlab chiqish, ularni psixologik rehabilitatsiya qilish uchun zarurdir. Ushbu masalani chuqur o'rganish, bolalarning psixologik sog'lig'ini tiklash va rivojlantirishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** jismoniy zo'ravonlik, psixologik zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, stress, ishonchsizlik, depressiya, o'zini past baholash, jismoniy va ruhiy salomatlik.*

Zo'ravonlikning bolalar psixologik salomatligiga ta'siri:

tahlil va oqibatlar

Mahalliy va xalqaro statistika shuni ko'rsatadiki, bolalar kattalarga nisbatan zo'ravonlikka ko'proq duch keladilar. Har qanday zo'ravonlik holati bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kabi tajribalar bolaning sog'lig'i, o'ziga bo'lgan munosabati va atrofdagi insonlar bilan



bo‘ladigan aloqalarini izdan chiqaradi. Ayniqsa, oilaviy muhitda sodir bo‘ladigan zo‘ravonlik holatlari bolada chuqur psixologik iz qoldiradi. Ushbu maqolada bolalarga nisbatan sodir etiladigan psixologik, jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan oqibatlari va ularning psixologik xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

1. Travmatik stress reaksiyalari. Zo‘ravonlikka duch kelgan bolalarda birinchi navbatda turli darajadagi travmatik stress reaksiyalari kuzatiladi. Qo‘rquv, xavotir, bezovtalik — bu kabi hislar nafaqat voqea sodir bo‘lgan paytda, balki ancha vaqt o‘tganidan keyin ham saqlanib qolishi mumkin. Ushbu holat quyidagi belgilar orqali namoyon bo‘ladi:

- Uyqu buzilishi: bezovta uyqu, tez-tez uyg‘onish, dahshatli tushlar;
- Ishtahaning pasayishi;
- Psixosomatik belgilar: bosh og‘rig‘i, qorindagi noqulaylik, yurak urishining kuchayishi;
- Ehtiyotkorlik yoki yakkaleshish: kattalardan va hatto yaqin insonlardan qochish holatlari;
- Travmadan keyingi stress buzilishi (PTSB): tajovuzkor xotiralar, hodisalarni doimiy takroran esga olish, o‘sha holatlardan qochishga urinish.

2. Gumon va ishonchsizlik hissi. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch pasayadi. Ular o‘zlarini ahmoq, noloyiq yoki keraksiz deb hisoblashadi. Bunday bolalar o‘z qadr-qimmatini yo‘qotadi, o‘zini past baholaydi va boshqalarga ishonchsizlik bilan qaraydi. Ular har qanday mehr va g‘amxo‘rlikni shubha bilan qabul qiladi va o‘zini himoyasiz, yolg‘iz his qilishadi.

3. Depressiya va o‘z joniga qasd qilish xavfi. Bolalikda zo‘ravonlikka uchragan shaxslar orasida depressiyaga moyillik yuqori bo‘ladi. Bu hissiyotlar o‘zini qadrsiz his qilish, tushkunlikka tushish, ijtimoiy chekinish va izolyatsiya holatlarida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa o‘smirlik davrida bu holatlar o‘z joniga qasd



qilish yoki unga urinish xavfini oshiradi. Bu — jiddiy psixologik yordamni talab qiladigan og‘ir oqibatlardandir.

4. Impulsiv va tajovuzkor xatti-harakatlar. Zo‘ravonlik qurboni bo‘lgan bolalar ko‘pincha ijtimoiy muhitga nisbatan tajovuzkor munosabatda bo‘lishadi. Ular:

- ✓ Uyda va maktabda buzg‘unchilik qiladi;
- ✓ O‘z tengdoshlari bilan kelishmaydi, janjalkash bo‘ladi;
- ✓ Aka-uka yoki opa-singillariga nisbatan zo‘ravonlik ko‘rsatadi;
- ✓ Hattoki uydan qochishga urinish holatlari ham kuzatiladi.

Bu xatti-harakatlar ko‘pincha ichki og‘riq va hal qilinmagan travmaning tashqi ifodasidir. Bunday holatlarda bolaga faqatgina jazoni qo‘llash emas, balki tushunish, mehr, sabr va psixologik yordam zarur. Bolaga nisbatan har qanday shakldagi zo‘ravonlik uning butun hayoti davomida salbiy iz qoldirishi mumkin. Zo‘ravonlikning psixologik oqibatlarini erta aniqlash va zaruriy reabilitatsiya choralarini ko‘rish bolalarning sog‘lom shaxs bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Mutaxassislar, pedagoglar va ota-onalar bu borada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, bolalarni tinglash va tushunish madaniyatini shakllantirishi lozim.

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha umumiy chora-tadbirlar

Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish har qanday jamiyat uchun ustuvor vazifalardan biridir. Bu borada kompleks va tizimli yondashuv zarur bo‘lib, quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:



1. **Huquqiy asoslarni mustahkamlash.** Bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari, milliy standartlar, davlat va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.
2. **Oilani qo‘llab-quvvatlash va ota-onalik ko‘nikmalarini rivojlantirish.** Oilaviy muhitni mustahkamlash, ota-onalarning tarbiyaviy salohiyatini oshirish va bolalarga zo‘ravonlikka qarshi turish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta’limiy dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish.
3. **Bolalar uchun xavfsiz muhit yaratish.** Ta’lim muassasalari, mahalla va ijtimoiy makonlarda bolalar uchun xavfsiz, sog‘lom va zo‘ravonlikdan xoli muhitni ta’minlash.
4. **Zo‘ravonlikning ildiz sabablari va xavf omillarini aniqlash.** Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning sabab va shart-sharoitlarini o‘rganish, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish.
5. **Huquqiy savodxonlikni oshirish.** Aholi o‘rtasida, ayniqsa ota-onalar, pedagoglar va yoshlar orasida bolalar huquqlari bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, huquqiy bilimlarni oshirish.
6. **Axborot-ma’rifiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish.** Bolalarni o‘z huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini hamda ularga bo‘lgan kafolatlar to‘g‘risida xabardor qilish bo‘yicha muntazam axborot-ma’rifiy ishlarini olib borish.
7. **Statistik monitoring va tahlilni amalga oshirish.** Bolalarga nisbatan sodir etilgan zo‘ravonlik holatlarini tizimli hisobga olish, ularning statistik tahlilini yuritish va mazkur ma’lumotlardan profilaktik chora-tadbirlar rejalashtirishda foydalanish.
8. **Huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish.** Zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, bolani himoya qilish va unga yordam ko‘rsatish bo‘yicha samarali huquqiy vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.



9. **Aybdor shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari qo'llash.** Bolalarga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni qonunchilikka muvofiq ravishda javobgarlikka tortish, bu orqali ogohlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish.

Zo'ravonlik xavfi ostida bo'lgan bolalar toifalari

Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishda ularni xavf ostidagi toifalarga ajratish va ularni erta aniqlash muhim ahamiyatga ega. Quyidagi bolalar toifasi zo'ravonlikka duchor bo'lish xavfi yuqori bo'lgan guruh hisoblanadi:

1. **Ota-onasidan ayrilgan bolalar.** Yetim qolgan yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ularga to'liq g'amxo'rlik ko'rsatish imkoniyati bo'lmagani uchun zaif qatlamga kiradi.
2. **Hayoti va sog'lig'i xavf ostida bo'lgan bolalar.** Bolaning yashash sharoiti sog'lig'i yoki hayotiga xavf tug'diradigan darajada yomon bo'lsa yoki uning ta'minlanishi, tarbiyasi, ta'limi va parvarishi talab darajasida bo'lmasa, bu holat zo'ravonlik xavfini oshiradi.
3. **Vasiyatsiz qolgan bolalar.** Ota-onasi vaqtincha bo'lmagan, lekin bu davrda bolaga vasiy yoki homiy tayinlanmagan bolalar e'tiborsizlik va beparvolik qurboniga aylanishi mumkin.
4. **Nazoratsiz yoki qarovsiz bolalar.** Uzoq muddat davomida nazorat va parvarishdan chetda qolgan bolalar jinoyatchilik yoki ekspluatatsiyaga moyil muhitga tushib qolish ehtimoli yuqori.
5. **Ijtimoiy jihatdan og'ir ahvoldagi bolalar.** Qashshoqlik, oilaviy inqiroz, doimiy yashash joyining yo'qligi yoki boshqa ijtimoiy omillar ta'sirida bolalar doimiy xavf ostida bo'ladi.
6. **Nogironligi bo'lgan bolalar.** Jismoniy yoki aqliy rivojlanishida cheklavlari bo'lgan bolalar ko'pincha tazyiq, befarqlik yoki ekspluatatsiyaga duch keladilar.



7. **Ruhiy yoki narkologik muassasalarda ro'yxatda turgan ota-onalar farzandlari.** Ruhiiy asab kasalliklari yoki giyohvandlik bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lgan oilalarda bolalar ko'pincha zo'ravonlik qurboni bo'ladi.
8. **Ota-onasiga nisbatan jinoiy jazolar qo'llanilgan bolalar.** Agar bolalarning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qamoqqa olingan yoki ozodlikdan mahrum etilgan bo'lsa, bu holat ularni xavf ostida qolishiga olib keladi.
9. **Ota-onasi og'ir jinoyatlar sodir etgan bolalar.** Jinoyat kodeksining jinsiy, zo'ravonlik va axloqiy xavfsizlikka qarshi moddalarida ko'rsatilgan jinoyatlarni sodir etgan ota-onalarning farzandlari ehtiyotkorlik bilan kuzatuvga olinishi kerak.
10. **G'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan bolalar.** Jamiyatga zid yoki xavfli xatti-harakatlar sodir etgan bolalar o'zlari ham zo'ravonlik qurboni bo'lishlari yoki unga moyil bo'lishlari mumkin.
11. **Fohishalik bilan shug'ullanayotgan bolalar.** Bu holat bolalarning jiddiy ekspluatatsiya va ruhiy travmalarga duchor bo'lish xavfini bildiradi.
12. **Vakolatli organlar tomonidan xavfli deb topilgan boshqa toifadagi bolalar.** Bolalar himoyasi bilan shug'ullanuvchi mutasaddi organlar tomonidan aniqlangan boshqa toifalar ham doimiy nazorat va yordamga muhtojdir.

Zo'ravonlikka uchragan bolalarda psixologik, emotsional va fiziologik oqibatlar

Zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalar, ayniqsa yaqinlar tomonidan ruhiy, jismoniy yoki jinsiy tajovuzga uchraganlar, odatda o'z shaxsiga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi. Ular o'zini past baholaydi, o'z qobiliyatlariga ishonmaydi hamda har qanday faoliyatda muvaffaqiyatsizlikni oldindan kutadi. Bunday bolalarda yangi ko'nikmalarni egallash, muammolarni mustaqil hal qilish



kabi vazifalar ishonchsizlik va qoʻrquv bilan qarshilanadi. Ular hali egallanmagan vazifalarni bajarishga urinishda muvaffaqiyatsizlikni muqarrar deb bilib, oʻz harakatlarini cheklab qoʻyadi. Natijada, ularning oʻquv motivatsiyasi pasayadi, mustaqil fikrlash va tashabbus koʻrsatish qobiliyati soʻnadi, bu esa maktabdagi faollik darajasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Zoʻravonlik natijasida yuzaga keladigan psixologik va kognitiv buzilishlar

Koʻplab bolalar zoʻravonlikka javoban rivojlanish va kognitiv faoliyatda turli darajadagi buzilishlarni boshdan kechiradi. Agar bola yigʻlashi yoki norozilik bildirgani uchun muntazam jazolangan boʻlsa, bu holat ularning nutq faoliyatida tormozlanishga olib keladi. Bunday bolalarda nutqiy rivojlanish sekinlashadi, hissiyotlarni ifoda etish uchun foydalanadigan soʻz boyligi torayadi. Ular fikrini erkin ifodalashda qiynaladilar, stress holatlarida hissiy jihatdan "yopilib qolish" kuzatiladi. Mojaroli vaziyatlarda oʻz kechinmalarini tushuntirib bera olmaydi, yoki haddan tashqari hayajonlanadi. Ammo voqea tafsilotlarini, ayniqsa tashqi omillarni aniq tasvirlashda nisbatan oʻzini erkinroq tutadi.

Psixosomatik alomatlar va ruhiy salomatlikka taʼsiri

Zoʻravonlikdan aziyat chekkan bolalarda psixosomatik kasalliklar keng tarqalgan. Bularga quyidagilar kiradi:

- **Oshqozon-ichak muammolari** (oshqozon yarasi, ich qotishi yoki aksincha, diareya)
- **Vazn muammolari** (semirish yoki toʻsatdan vazn yoʻqotish)
- **Allergik reaksiyalar** va teri toshmalari
- **Nevropsixik buzilishlar:** duduqlanish, enurez (siydikni tuta olmaslik), enkoprez (najasni nazorat qila olmaslik)



Jismoniy va emotsional zoʻravonlik tajribasi natijasida ayrim bolalarda agressivlik kuchayadi. Ular oʻz gʻazabini koʻpincha yoshroq yoki zaifroq tengdoshlariga yoki hayvonlarga nisbatan koʻrsatadilar. Bu holat baʼzan oʻyinlarda tajovuzkor xatti-harakatlar, baʼzan esa sababsiz portlashlar orqali yuzaga chiqadi. Boshqa tomondan, baʼzi bolalar aksincha, ortiqcha passiv boʻlib qoladi, oʻzini himoya qila olmaydi, ijtimoiy ajralganlik holati kuchayadi. Ikkala holatda ham tengdoshlar bilan muloqot sustlashadi va izolyatsiyaga olib keladi.

Jinsiy zoʻravonlik oqibatlari

Jinsiy zoʻravonlikka uchragan bolalarda yoshiga mos boʻlmagan bilim va xatti-harakatlar rivojlanadi. Bu holat ularning boshqa bolalar bilan boʻlgan oʻyinlarida, oʻyinchoqlar bilan boʻlgan munosabatida yoki jismoniy aloqalarga taqlid qilish harakatlarida koʻzga tashlanadi. Bunday tajribani boshdan kechirgan ayrim bolalar esa keyinchalik oʻzlari ham jinsiy zoʻravonlikka intilishi, bu jarayonga boshqa bolalarni jalb qilishi mumkin. Bu esa ushbu bolalarni oʻz vaqtida psixologik rehabilitatsiyaga muhtoj etadi.

Shaxsiylik inqirozi va ichki kechinmalar

Zoʻravonlikdan aziyat chekkan bolalarda oʻz-oʻzini hurmat qilmaslik, aybdorlik hissi, uyatchanlik, oʻzini aybdor his qilish kabi tuygʻular doimiy kuzatiladi. Ular oʻzlarini doimiy ravishda "yomon", "notoʻgʻri", "arsiz" deb hisoblaydi. Bunday ichki salbiy eʼtiqodlar bolada oʻz tengdoshlariga yaqinlashish, muvaffaqiyatga erishish va ijtimoiy hurmatga sazovor boʻlish imkoniyatini sezilarli darajada kamaytiradi.



ADABIYOTLAR:

1. Фурманов И.А., Аладьин А.А., Фурманова Н.В. Психологическая особенности детей, лишенных родительского попечительства. – Мн.: Тесей, 1999. – 160 с.

2. Сафонова Т.Я., Цымбал Е.И Жестокое обращение с детьми и- его последствия; // Жестокое обращение с детьми: сущность, причины, социальноправовая защита. Мi, 1993. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi www.tadqiqotlar.uz 4-to'plam 1-son fevral 2024 332

3. Холл З. Последствия сексуальных и психологических травм детства// Психол. журнал, № 5. – т.13, 1992. – С.120-129.

4. Соколова Е.Т. Влияние на самооценку нарушений эмоциональных контактов между родителем и ребенком и формирование аномалий личности // Семья и формирование личности. М.: МРУ им. М.ВШомонова, 1981.